



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	



O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
Zarina Itolmasova	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna	

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH

Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Musiq va tasviriy san'at kafedrası tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0005-3081-6929

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. O'quvchilarning o'z fikrini erkin, ta'sirli, mazmunli tarzda yozma va og'zaki shaklda to'liq ifodalashga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqilgan. Jumladan, ona tili va o'qish savodxonligi fanida o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga oid topshiriqlarning boshlang'ich sinflardagi o'rni va bu orqali nutqiy qobiliyatlarni shakllantirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy faoliyat, og'zaki nutq, yozma nutq, kompetensiya, lug'at, ta'lim, bilim, fan.

Abstract: The article explores the development of speech skills among primary school students. It presents tasks aimed at enabling students to express their thoughts freely, effectively, and meaningfully in both written and oral forms. In particular, the importance of speech development tasks within the mother tongue and reading literacy subjects in primary grades is discussed, along with their role in shaping students' speaking abilities.

Key words: speech activity, oral speech, written speech, competence, vocabulary, education, knowledge, science.

Аннотация: В статье рассматривается развитие речевых навыков учащихся начальных классов. Разработаны задания, направленные на свободное, эффективное и осмысленное выражение мыслей учащихся в письменной и устной форме. В частности, рассмотрено значение заданий по развитию речи на уроках родного языка и чтения в начальных классах, а также их роль в формировании навыков говорения у учащихся.

Ключевые слова: речевая деятельность, устная речь, письменная речь, компетенция, словарный запас, образование, знания, наука.

KIRISH

Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 30-maydagi o'z saylovoldi dasturida: "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish siyosatimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ladi", – deya ta'lim va tarbiyaning jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatini yana bir bor ta'kidlab o'tganlar. Respublikamizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor biz, yoshlarni, kelajakka teran nazar tashlashga, o'z maqsadimiz yo'lida og'ishmay harakat qilishga undaydi. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning mamlakat taraqqiyoti va yurt manfaati yo'lidagi g'oyalari amalga oshirishlari uchun yetarli sharoitlar yaratib berish kabi masalalar yotadi.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev 2025-yil 14-fevral kuni videoselektorda yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Yig'ilishda ta'lim, ilm-fan va ularning huquqiy himoyasi masalalari atroflicha muhokama qilindi. "Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo'ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi? Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g'oyalarni sizlar – bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari amalga oshirishlari", – deya ta'kidladi Sh.M. Mirziyoyev. Yig'ilish davomida yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini erta aniqlash, ularning salohiyatini modernizatsiya qilish va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga jalb etishda sun'iy intellekt loyihalaridan foydalanish muhimligi ta'kidlab o'tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimida umumta'lim fanlarini o'rganishga oid konsepsiyalar shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi,



uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos quyidagi kompetensiyalar tasdiqlandi:

- kommunikativ kompetensiya;
- axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
- o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;
- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- milliy va umummadaniy kompetensiya;
- matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda ulardan foydalanish kompetensiyasi.

Kommunikativ kompetensiya jamiyatdagi har qanday ijtimoiy vaziyatlarda ona tili va boshqa tillarda muloqotga kirisha olish, so'zlashuv madaniyatiga rioya qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Demak, kommunikativ kompetensiya bevosita nutq faoliyati va nutq madaniyati bilan bog'liq kompetensiyadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq – muloqot jarayonining asosiy shartidir. Uning paydo bo'lishi haqida psixolingvistik qarashlarda turlicha fikrlar mavjud: L.S. Vigotskiy o'z ta'limotida nutq yaratilishining mohiyatida “fikrdan ma'noga, ma'nodan so'zga” degan g'oyani ilgari surdi. Demak, avval ma'lum bir jarayon to'g'risida fikr qilinadi, u mazmun va hajm jihatidan shakllantiriladi, undan so'ng esa nutqqa so'zlar orqali ko'chadi.

A.R. Luriya modelida jarayonning boshida motiv turadi. Motiv, undan keyin fikr paydo bo'ladi va u ifodaga aylanadi, undan so'ng ichki nutq qo'shiladi va u botiniy sintaktik tuzilmalarning shakllanishiga olib keladi. I.A. Zimnaya ta'limotiga ko'ra, nutq muayyan maqsadga qaratilgan, til orqali yuzaga keladigan, insonlar o'rtasida ta'sir ko'rsatish – kommunikatsiya jarayonidir. Umumiy psixologiyada nutq odamlarning moddiy faoliyatlari shakllanishi davomida paydo bo'lgan muloqot shakli deya izohlanadi. Zamonaviy psixologiyada esa nutqqa universal muloqot vositasi sifatida qaralib, u ikki subyekt ishtirokidagi ong faoliyatining murakkab shakli deya izohlanadi.

Olimlarning nutq faoliyatining yuzaga chiqishi to'g'risidagi qarashlari atroflicha, lekin hammasida yagona mazmun – fikr ifodalash maqsadi mavjud. Ayni faoliyatni yuzaga chiqarish bilan birgalikda uni rivojlantirish, fikrni aniq, lo'nda qilib tinglovchiga yetkazib berish so'zlovchidan o'ziga xos mahoratni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq malakalarini rivojlantirish muhim va dolzarb jarayonlardan hisoblanadi, chunki o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini, qarashlarini bemalol va bexato izohlashlarida nutqning shakllanganligi, benuqson bo'lishi, ular yetarlicha so'z boyligiga ega bo'lishi, jarayonni tasvirlashda hissiy-emotsionallikni nutq orqali to'liq yuzaga chiqara olishlari lozim.

N. Bekmirzayev “Notiqlik san'ati asoslari” deb nomlangan o'quv qo'llanmasida notiq (nutq so'zlovchi) o'z nutqining grammatik tuzilishiga ahamiyat berishi kerakligini, uning sodda, aniq, mantiqli bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini e'tirof qiladi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun tasviriy vositalarni mukammal bilish muhimligini aytib o'tadi. “Ta'sirchan nutqning asosi maqollar, masallar, hikmatli so'zlar va iboralardir”, – deydi muallif. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga oid xorijda va yurtimizda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, M.Z. Hamdamova o'zining tadqiqot ishi davomida 1–2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishga oid izlanishlar olib borgan. Unga ko'ra, bola nutqining rivoji ko'p jihatdan ruhiyatiga, sog'lom o'sishiga, axloqiy sifatlariga, maktab o'quv dasturini o'zlashtirishdagi me'yoriilikning ta'minlanishiga bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

N.A. Qosimova o'z ilmiy ishida ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilar nutqini so'z ma'nodoshlari, ya'ni sinonimlar bilan rivojlantirishni tadqiq qiladi. Tadqiqotchi maktab o'quvchilarida og'zaki va yozma nutq shunchaki shakllanib qolmasligini, balki bu jarayon so'z zaxirasini oshirib borish, so'zning ma'nodoshlaridan nutqiy faoliyatda unumli foydalanish orqali qo'lga kiritilishini ta'kidlab o'tadi.

Yana bir ilmiy tadqiqotchimiz G.M. Ahmedova o'quvchilar nutqini rivojlantirishda yasama so'zlarning o'rnini haqida fikr yuritadi. Unga ko'ra, rusiyzabon o'quvchilar qanchalik o'zbekcha so'zlarni ko'p bilsa, ya'ni ularning lug'atida o'zbekcha so'zlar ko'p bo'lsa, ular bajara oladigan nutqiy mashqlar miqyosi keng, milliy ma'naviyatga doir matnlar mundarijasi esa mazmundor bo'ladi. Umuman, so'z yasalishi haqida gap ketganda, u qaysi tilda bo'lmasin, shu tilning ichki imkoniyatlari doirasida lug'atini osonlik bilan boyitish manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

T.M. Kovbasyuk o'tkazgan statistik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, mustaqil ma'noli so'zlarning 30 foizga yaqinini yasama so'zlar tashkil qilar ekan. Shunday ekan, nutqimizni bezab, unga jozibadorlikni ato etishda so'zning boshqa grammatik vositalari qatori so'z yasovchi qo'shimchalarning ham o'rnini beqiyosdir.



A.K. Nisanbayeva asosan o'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslarini ishlab chiqdi. Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilar o'z nutqlarida talay talaffuz xatolariga, leksik va grammatik nuqsonlarga, gap tuzish va matn yaratish bilan bog'liq kamchiliklarga yo'l qo'yishlarini ta'kidlab, bunday nuqsonlarning oldini olish va ularni takrorlamaslik uchun ilmiy tadqiqot olib bordi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklaridagi badiiy asarlar o'quvchilarning nutq malakalarini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. 3-sinf o'qish savodxonligi 1-qism, 1-darsda "Vatan madhi dillarda" sarlavhasi ostida berilgan matn o'quvchilarni vatanni sevish va uni ardoqlashga undaydi.

Vatan madhi dillarda. Vatan! Bu so'z bizning qalbimizga ona allasidan, uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar ma'lum bir muddat o'z uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, ko'nglimiz g'ash bo'laveradi. Har qanday ko'ngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz o'z go'shamizni qo'msay boshlaymiz. Bu – Vatanni sevishning bir ko'rinishi emasmi?!

Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona Vatanga tegishli bo'lgan har bir narsani muqaddas bilish, o'zini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish – haqiqiy insonlarga xos fazilatdir.

Aziz bolajonlar, mana, yana bir yoshga ulg'aydik. Orzu-o'ylarimiz, niyatlarimiz ham biz bilan qo'l ushlab bo'y cho'zmoqda. Ulg'ayganimiz sari qalbimizda, ongimizda yangi-yangi tuyg'ular uyg'ona boshlaydi. Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, ajdodlarga nisbatan iftixor, mas'uliyat, ishonch kabi tuyg'ular qatoriga o'nlab, yuzlab tuyg'ularni kiritish mumkin. Bu tuyg'ularning asosi – muhabbatdir.

Bizni o'z quchog'iga olgan, tinch va osoyishta yashayotgan, ilm olayotgan Vatanimizni sevmay bo'ladimi?! O'zbekiston deya atalmish, bog'larida jannat shivirlaydigan serquyosh o'lkamizda, dunyoni qalam bilan tebratgan ne-ne shoirlar, o'z aqli bilan hozirgi kunda ham olam ahlini lol qoldirib kelayotgan olimu fuzalolar yetishib chiqqan. Biz buyuk bobolarimiz bilan faxrlanamiz va ularga munosib avlod bo'lishga intilamiz.

Ushbu matnda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning matn mazmunini anglay olishlari inobatga olingan. Matnni o'qib, qayta hikoya qilish orqali ular mazmunga o'z fikrlarini ham qo'shib, Vatan haqidagi qarashlarini ifoda etishadi. Matn mazmunini chuqur anglagan holda o'quvchilar nutqini yanada boyitish maqsadida tushunchalar tahlili metodidan foydalaniladi. Bunda matn tarkibidan mazmuni anglashda qiyinchilik tug'diradigan so'zlar tanlab olinadi va o'quvchilardan ularning izohini so'rash tavsiya etiladi.

Mazkur metod o'quvchilarning tushunchalarni qay darajada anglaganini, o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, eng asosiysi – ularning nutqini boyitish va so'z boyligini kengaytirish maqsadida qo'llaniladi.

1-jadval: "Tushunchalar tahlili" metodi

Tushuncha	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Qalbga singadi	Insonning his tuyg'ulariga, yuragiga o'rnamish	
Ko'ngli g'ash bo'lmoq	bezovta bo'lish	
Qo'msamoq	sog'inish	
Dahldor	aloqador, bog'liq	
Mas'uliyat	javobgarlik	
Osoyishta	tinch, xotirjam	
Lol qoldirmoq	hayron bo'lish, ajablanish	
Intilmoq	oldinga harakat qilish	

Matn ichidan olingan ushbu turli so'z turkumi doirasidagi so'zlarni o'quvchilar mustaqil ravishda izohlashlari kerak bo'ladi. Matnni qayta hikoyalash va bunda o'quvchilar umumiy ishtirokini ta'minlash, matn mazmuni va g'oyasining hammaga birdek tushunarli bo'lishi bilan bir qatorda, ularning voqealar rivojini to'g'ri tashkil qilishlari, ketma-ketlikni adashtirmagan holda hikoya qilishlariga imkon yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Albatta, bu jarayon o'quvchilar nutqining rivojida ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda, kichik-kichik hikoyalar tuzdirish dars jarayonining qiziqarli bo'lishini va uning samaradorligini oshiradi. Bunda, masalan, "Bizning mahallamiz" mavzusi tanlab olinadi. O'qituvchi kirish gapini o'zi tuzib beradi:



Biz "Amir Temur" mahallasida istiqomat qilamiz.

1-o'quvchi: Mahallamizda yosh-u qari birdek ahil-inoq.

2-o'quvchi: Bu yerda zamonaviy maktab, bolalar bog'chasi, shifoxona, aholining ehtiyojlarini ta'minlash uchun savdo do'konlari, tikuvchilik sexlari, novvoyxonalar bor...

Shu tarzda har bir bola bittadan fikr bildirib, yaxlit hikoya tuziladi. Mazkur topshiriq o'quvchilarning bog'lanishli matn yaratish, mazmun zanjirini uzmasdan gap tuza olish, so'zlarni bir-biriga bog'lashda qo'shimchalardan o'rinli foydalanish, ortiqcha takrorlarning oldini olishda olmoshlar va sinonimlardan keng foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Eng asosiysi, bu ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutq – bu moddiy hamda ma'naviy ehtiyojdir. Sababi, biz qaysi sohada faoliyat yuritmaylik, albatta, kishilar bilan munosabatga kirishamiz, fikr bildiramiz, ehtiyojlarimiz va zaruratlarimizni nutq orqali suhbatdoshimizga yetkazamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy malakalarini rivojlantirishda ularning lug'at boyligini oshirish, darsliklardagi ma'nosi notanish so'zlarni izohlash va aynan shu so'z ishtirokida gap tuzdirish, yaqin ma'noli so'zlarni topish (masalan: vatan, diyor, o'lka), rasmlar asosida kichik hikoyalar tuzdirish samarali ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, 3–4-sinflarda o'quvchilarga sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirishni o'rgatish orqali ularning grammatik va mazmuniy bog'liqlikda gap tuza olish ko'nikmalari shakllanadi.

– Bahor keldi. Bahor keldi va kunlar isiy boshladi.

Nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar dars jarayonida ta'limga tatbiq qilinadi. Shu tufayli, maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga oid tadqiqotchi olimlarning fikrlari hamda mashq turlarining tahlili keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 30-maydagi O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasidan prezidentlikka nomzodlik nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 14-fevraldagi videoselektorda yoshlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotidan.
3. A. K. Nisanbayeva. "O'zbek tili darslarida matn vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning metodik asoslari". Dissertatsiya.
4. F. Sharipov. Psixolingvistika (elektron majmua). Guliston, 2023.
5. G. M. Ahmedova. "O'zbek tili darslarida o'quvchilar nutqini yasama so'zlar bilan boyitishning metodik asoslari". Dissertatsiya.
6. M. E. Toirova. O'qish savodxonligi. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 80 b.
7. M. Z. Hamdamova. "1–2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi". Dissertatsiya.
8. N. Bekmirzayev. Notqlik san'ati asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent: "Yangi nashr", 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.